

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI FAN DOKTORI  
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.K.01.03  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**QURBANOVA LATOFAT MAMADIYOROVNA**

**NATRIY-KARBOKSIMETILSELLYULOZA VA AZOT, FOSFOR TUTGAN  
BIRIKMALAR ASOSIDAGI YASHIL INGIBITORLARNING  
SAMARADORLIGI**

**02.00.04 – Fizik kimyo (kimyo fanlari)**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical  
sciences**

**Qurbanova Latofat Mamadiyorovna**

Natriy-karboksimetilsellyuloza va azot, fosfor tutgan birikmalar asosidagi  
yashil ingibitorlarning samaradorligi..... 3

**Курбанова Латофат Мамадиёровна**

Эффективность зелёных ингибиторов на основе натрий-  
карбоксиметилцеллюлозы и азот, фосфор содержащих соединений... 21

**Kurbanova Latofat Mamadiyorovna**

The effectiveness of green inhibitors based on sodium  
carboxymethylcellulose and nitrogen, phosphorus containing compounds... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 42

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI FAN DOKTORI  
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.K.01.03  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**QURBANOVA LATOFAT MAMADIYOROVNA**

**NATRIY-KARBOKSIMETILSELLYULOZA VA AZOT, FOSFOR TUTGAN  
BIRIKMALAR ASOSIDAGI YASHIL INGIBITORLARNING  
SAMARADORLIGI**

**02.00.04 – Fizik kimyo (kimyo fanlari)**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/K690 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiyasi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.ik-kimyo.nuu.uz](http://www.ik-kimyo.nuu.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Eshmamatova Nodira Baxromovna**  
kimyo fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Xoliqov Abduvali Jonizoqovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rashidova Kamila Xamidovna**  
PhD., dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **O'z FA Umumiy va noorganik kimyo instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc. 03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning «15» fevral 2025-yil soat 14<sup>00</sup> daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, faks: (99824) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: [ilmiy\\_kengash@nuu.uz](mailto:ilmiy_kengash@nuu.uz)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 7 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4 uy. Tel.: (99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil \_\_\_-\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil \_\_-\_\_\_gi \_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**Z.A.Smanova**

Fan doktori ilmiy darajasini beruvchi  
ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

**N.X.Qutlimurotova**

Fan doktori ilmiy darajasini beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d., professor

**X.I.Akbarov**

Fan doktori ilmiy darajasini beruvchi  
ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar  
raisi, k.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda metallar korroziyasi ijtimoiy va ekologik ta'sirlar ostida oshib bormoqda, uni kamaytirishda ingibitorlar, antikorrozion va metall qoplamalar keng qo'llaniladi. Ayniqsa turli xil funksional guruhlarga ega bo'lgan, iqtisodiy samaradorli, ekologik havfsiz, ingibitorlarni qo'llash katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda yashil kimyo talablari asosidagi o'simlik ekstraktlaridan yangi korroziyaga bardoshli ingibitorlar ishlab chiqish muhim o'rin tutadi.

Jahonda metallarni korroziyadan himoyalashning samaradorligini oshiruvchi ingibitorlarni sintez qilishda amino, karboksil guruh, fosfat kislota hosilalari, turli xil supramolekulyar birikmalardan keng qo'llaniladi. Ularning metall sirtiga adsorbsiyalanishi, katod va anod jarayonlarni, turli xil fizik-kimyoviy xossalarni aniqlash bo'yicha keng ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa ekologik xavfsiz bo'lgan o'simlik ekstraktlari asosidagi yashil ingibitorlarni ekstraksiya qilish, ularning metallar yuzasidagi adsorbsion ta'sirlarini aniqlash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda ilg'or innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishga hamda sanoat tarmoqlarini barqarorlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Korroziya jarayonlarini o'rganish va metallarni himoya qilish usullarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy va texnik muammolarga tegishli. Hozirgi vaqtda kislotali muhitda metallarning korroziya tezligiga ta'sir qiluvchi juda ko'p turdagi organik va noorganik birikmalar o'rganilmoqda. Bunga parallel ravishda tabiiy yoki "yashil" korroziya ingibitorlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Korroziya tezligini kamaytirish uchun tabiiy mahsulotlar, o'simliklar va ularning ekstraktlaridan foydalanish mumkinligi aniqlangan. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash"<sup>1</sup>ga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan.

Shu sababli import o'rnini bosuvchi, raqobatbardosh, jahon sifat standartlari talablariga javob beradigan, eksportbop, kam konsentratsiyada yuqori samaradorligi bo'lgan, xavfsiz, biologik toza korroziyaga qarshi yashil ingibitorlarni yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyundagi PF-6244-sonli "Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi farmonlarida nazarda tutilgan vazifalarni, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-sonli "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" va 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3264-sonli "Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlariga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.

ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiya” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyoda olimlar tomonidan olib borilayotgan ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlari korroziya ingibitorlarining yangi avlodini ishlab chiqarishga bag‘ishlangan. Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, juda ko‘p ishlar (J.Wang, D.K.Verma, M. Salasi, J. Chen, X. Zhang, G. Galicia, Y. Qiang, O.A. Elgyar, V. Jeslina, M.P. Gomes, M. Elayyachy, J. Kaur, Ya. Zhang, L.Lei, J. Shi, S.T. Kalajahi, M. Goyal, P.R. Sivakumar, U.I. Musdalslien) elektrokimyoviy usullar tadqiqotlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda ingibitorlar sifatida turli xil materiallar qo‘llanilgan. Bugungi kunda korroziya ingibitorlari tadqiqotlarida fizik-kimyoviy, elektrokimyoviy va boshqa turli usullar ishlab chiqilgan, biroq texnologiya rivojlanishi bilan korroziya jarayonida organik birikmalarni ingibitor sifatida ta’sir qilish mexanizmi hamda po‘lat sirtiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston olimlari, jumladan, R.S.Tillayev, A.T.Djalilov, D.Yusupov, Z.A.Tadjixodjayev, X.I.Akbarov, A.Ikramov, V.P.Guro, A.J.Xoliqov, X.I.Qodirov, N.B.Eshmamatova, E.T.Berdimurodov va boshqalar metallarni korroziyadan himoyalash muammosini hal qilishda hamda ingibitorlar sifatida ishlatiladigan kimyoviy birikmalarni yangi avlodini sintez qilib olinishida o‘z ilmiy tadqiqotlari bilan katta hissa qo‘shganlar. Bugungi kunda sanoat korxonalari, ishlab chiqarish zavodlarida mavjud turli muhitlarda korroziyani to‘xtatish bo‘yicha mahalliy xomashyolar asosida samaradorligi yuqori bo‘lgan yashil ingibitorlar yaratishga katta ahamiyat berilmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №A-12-46 “Polielektrolitlarning antikorrozion samaradorligini oshirish va uni amaliyotga qo‘llash” (2015-2017-yy.) mavzusidagi amaliy loyihaning davomi sifatida olib borilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** metallarni korroziyadan samarali himoyalaydigan natriy-karboksimetilselluloza birikmalarini va poliz ekinlaridan ekstraksiyalangan yashil ingibitorlarni yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

samaradorligi yuqori bo‘lgan yashil (citrullus lanatus, cucumis melo, cucurbita) korroziya ingibitorlari ekstrakt namunalarini ajratib olish hamda Na-KMS asosidagi ingibitorlarni sintez qilish;

yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usullaridan foydalanib, citrullus lanatus, cucumis melo, cucurbita ekstraktlari tarkibini aniqlash;

elektrokimyoviy, gravimetrik usullar asosida korroziya toki, tormozlash koeffitsiyenti, korroziya tezligi, himoyalash darajasi kabi parametrlar hamda yashil ingibitorlar bilan qo‘llaganda optimal harorat va konsentratsiyani aniqlab ko‘rsatish;

ishlab chiqilgan ingibitorlarning adsorbsion muvozanat konstantasi va to'la qoplanish darajasini hisoblash va himoyalashning tahminiy mexanizmlarini aniqlash; yashil ingibitorlarni samaradorligiga haroratning ta'sirini o'rganish asosida kinetik parametrlar va termodinamik funksiyalarni hisoblash;

natriy-karboksimetilselluloza va azot, fosforli birikmalar asosidagi yashil korroziya ingibitorlari turli muhitlarda metall sirtiga ta'sirini aniqlash;

olingan ingibitorlarni laboratoriya sharoitida sinovlarini o'tkazib, ishlab chiqarishda amaliyotga tadbiq qilish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida *Citrullus lanatus* (tarvuz), *Cucumis melo* (qovun), *Cucurbita* (qovoq) ekstrakt namunalari hamda Na-KMS asosidagi birikmalar olingan.

**Tadqiqot predmeti** sifatida ingibitorlarni samaradorligiga turli omillarning ta'sirini aniqlash va ingibirlashning taxminiy mexanizmlarini taklif qilishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida infraqizil spektroskopiya, kvant kimyoviy, elektrokimyoviy, ya'ni potensiodinamik qutblanish usuli, qutblanish qarshiligi, ochiq elektrod potensial, gravimetrik, rentgen fazaviy analiz hamda yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor *Citrullus lanatus*, *Cucumis melo*, *Cucurbita* ekstrakt namunalari ajratib olingan va natriy-karboksimetilselluloza asosidagi ingibitorlar sintez qilingan. Yashil ingibitorlarning po'lat 3 va 45 namunalari uchun samaradorligi yuqori ekanligi aniqlangan;

qutblanish qarshiligi, qutblanish egrilari, ochiq zanjir potensiali, elektrokimyoviy tovush usullari asosida korroziya potensiali, korroziya toki aniqlanib, yashil ingibitorlarning himoyalash darajasi 95,54% ga yetganligi, shu bilan birga ularni harorat va konsentratsiyaga bog'liqligi ko'rsatilgan;

yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli *Citrullus lanatus*, *Cucumis melo*, *Cucurbita* ekstraktlarida flavonoidlar va vitaminlar mavjudligi ko'rsatilgan, yashil ingibitorlarning 30 mg/l konsentratsiyada to'la qoplanish darajalari 0,9554 ga tengligi va ingibirlash jarayonining termodinamik funksiyalari aniqlangan;

*Citrullus lanatus*, *Cucumis melo*, *Cucurbita* yashil ingibitorlarida turli funksional guruhlar mavjudligi hisobiga ichki molekulyar sinergizm effekti kuzatilgan hamda bunday ingibitorlarning metall sirtida zich qavatlar hosil qilishi va ingibirlash samarasining ortishiga olib kelishi ko'rsatilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

*Citrullus lanatus*, *Cucumis melo*, *Cucurbita* ekstrakt namunalari ajratib olindi va natriy-karboksimetilselluloza asosidagi yashil ingibitorlar sintez qilingan;

yashil ingibitorlarning korroziyadan samarali himoyalashi va metall yuzasiga yaxshi adsorbsiyalanishi isbotlangan, shu bilan birga sinergetik ta'sir natijasida po'lat 3 va 45 namunalari 95,54% gacha himoyalash darajasiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Asosiy ilmiy natijalar va xulosalarning **ishonchliligi** po'lat namunalari turli muhitdagi korroziyasi zamonaviy fizik-kimyoviy, elektrokimyoviy va gravimetrik usullarda aniqlanganligi bilan tasdiqlanadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqarilgan ingibitorlarning kimyoviy tabiati bilan antikorrozion xossalari orasida o‘zaro bog‘liqlik ko‘rsatilgani, kinetik va termodinamik parametrlarni turli usullarda aniqlanishi orqali yashil ingibitorlarning ta‘sir qilishining taxminiy mexanizmini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, natriy-karboksimetilselluloza va azot, fosfor tutgan yashil ingibitorlar nafaqat toza po‘lat sirtida, balki korroziyalangan holatda ham jarayonni sekinlashtirib beradi, bu esa metallarning mo‘rtligini oldini olishga yordam beradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Metallarni korroziyadan saqlashda yashil ingibitorlar qo‘llanilganda olingan ilmiy natijalar asosida:

natriy-karboksimetilselluloza va azot, fosfor tutgan yashil ingibitorlari Muborak gazni qayta ishlash zavodida amaliyotga joriy etilgan (Muborak gazni qayta ishlash zavodining 2024 yil 18 martdagi 45/GK-03-sonli ma‘lumotnomasi). Qo‘llanilgan ingibitorlar metall sirtiga aralash turdagi ingibitorlar sifatida ta‘sir qilishi aniqlandi. Eritmada ingibitorning metall sirti bilan ta‘sir qilishi hamda qiyin eruvchan mahsulotlarni hosil bo‘lishi va himoyalovchi qatlamlar hisobiga korroziya jarayonini tormozlashi va kamaytirishi aniqlangan.

A-FA-2021-18 raqamli “Gazni qayta ishlash jarayonida chiqindi suvlaridan elektroliz qilish usuli bilan vodorod sul‘fidni tozalash, flegmadan metildietanolaminni va uch fazali ajratkich orqali gaz kondensatini ajratish texnologiyasini yaratish” (2022-2023 yy.) ilmiy loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 21 oktabrdagi FTK-0313/703-son ma‘lumotnomasi). Ilmiy tadqiqotlar natijasida metallarni xizmat muddatini uzaytiruvchi ingibitorlar yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 17 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 13 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilingan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 7 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola respublika va 2 ta maqola xorijiy jurnallarda va 1 ta monografiya nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 4 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 106 betni tashkil qiladi<sup>2</sup>.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish qismida** o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning

---

<sup>2</sup> Muallif dissertatsiya ishini bajarishda bergan ilmiy maslahatlari uchun kimyo fanlari doktori, professor X.I.Akbarovga minnatdorlik bildiradi.

ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ingibitorlar yordamida metallar korroziyasini himoyalash”** deb nomlangan **birinchi bobi** adabiyotlar sharhiga bag'ishlangan bo'lib, unda metallar korroziyasining zamonaviy nazariyasi va himoyalash usullari tavsiflab ko'rsatilgan. Yashil ingibitorlarning tarkibi va tuzilishi, qo'llanilishi, ilmiy-texnik adabiyotlar va patentlardan o'rganilgan. Metallar korroziyasida ko'p komponentli va yashil ingibitorlar samaradorligini funksional guruhlariga bog'liqligi adabiyotlardan o'rganilgan. Hozirgi kunda turli muhitlardagi korroziyaviy jarayonlarni to'xtatish bo'yicha respublikamiz va chet elda olib borilayotgan ishlar qiyosiy muhokama qilingan. Adabiyotlar sharhi ishning maqsadi, masalasi va ob'yektlarini tanlanganlik darajasini asoslab beradi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyektlari va usullari”** deb nomlangan **ikkinchi bobida** foydalanilgan po'lat 3 va 45 namunalarining tarkibi, fon eritmalar keltirilgan. Natriy-karboksimetilsellyuloza va azot, fosfor tutgan birikmalar asosidagi yashil ingibitorlarning sintezi va tadqiqot usullari, qo'llanilgan jihozlar va materiallari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

## 1-jadval

### Disertatsiyada qo'llanilgan yashil ingibitorlar tavsifi

№	Ingibitorlar	Ingibitorlarning to'liq nomlanishi va tarkibi
1	Citrullus lanatus (Yashil ingibitor-1)	Tarvuz (A, C, E vitamini, B-guruhi vitaminlari, flavonoidlar, geteroatomli birikmlar, magniy, kaliy, kalsiy, fosfor, azot, temir, natriy, kislorod, vodorod va b.)
2	Cucumis melo (Yashil ingibitor-2)	Qovun (saxaroza, kletchatka, vitaminlar, flavonoidlar, folat kislota, kaliy, natriy, kalsiy, magniy, temir, azot, fosfor, oltingugurt va boshqa mikroelementlar)
3	Cucurbita (Yashil ingibitor-3)	Qovoq (qand, vitaminlar, askorbin kislotasi, karotin, tiamin, riboflavin, azotli birikmalar, flavonoidlar, pektin moddalar, moy)
4	Na-KMS·H <sub>3</sub> PO <sub>4</sub>	Natriy-karboksimetilselluloza fosfat kislota bilan xosilasi
5	Na-KMS·Na <sub>5</sub> P <sub>3</sub> O <sub>10</sub>	Natriy-karboksimetilselluloza natriy tripolifosfati bilan xosilasi

Elektrokimyoviy tadqiqot usullari, gravimetrik usul, ingibirlash jarayonining faollanish kinetikasi va termodinamikasi, adsorbsiya nazariyalari va termodinamikasi, IQ spektrlari va ularning tahlillari, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX) usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Birinchi marta poliz ekinlari

ekstraktlari: citrullus lanatus (Yashil ingibitor-1), cucumis melo (Yashil ingibitor-2), cucurbita (Yashil ingibitor-3) ekstraktlari namunalari ingibitorlar sifatida olingan.

Tadqiqot obyektlari sifatida natriy-karboksimetilsellyuloza va azot, fosfor tutgan birikmalar asosidagi yashil ingibitorlar olingan va ularni tavsiflari 1-jadvalda keltirilgan. Tadqiqotlar quyidagi fon eritmalarda olib borildi: 5%Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>+3%H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> (Fon-1) pH=5,3; 3%NaCl+5%Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> (Fon-2), pH=8,9; vodoprovod suvi (Fon-3), pH=6,7. Elektrodlar po'lat 45 namunasidan, %: Fe=97; C=0,42; Mn=0,50; Si=0,17; P=0,035; As=0,08; S=0,04; Cr=0,25; Ni=0,25; Cu=0,25 tayyorlandi. Ayrim tadqiqotlar po'lat 3 namunalari ham olib borildi. %:Fe=98,36; C=0,20; Mn=0,50; Si=0,15; P=0,04; S=0,05; Cr=0,30; Ni=0,20; Cu=0,20.


Dissertatsiyaning **“Natriy-karboksimetilsellyulozaning birikmalari va poliz ekinlaridan ekstraksiyalangan yashil ingibitorlarning tarkibi va tuzilishi”** deb nomlangan **uchinchi bobida** sintez qilingan birikmalar va yashil ingibitorlar ekstraksiyasi IQ-spektroskopiyasi, optik emission spektrometrik usul, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX) usullaridan olingan natijalarning tahlili keltirilgan.

**Natriy-karboksimetilselluloza birikmalari asosidagi yashil ingibitorlarning IQ spektrlari.** Ingibitorlarni himoyalash xususiyati ayrim metallarda -NH<sub>2</sub>, =NH, CN, N=O, C=C, -C=O, OH, P-O-H, P=O, COO<sup>-</sup>; funksional guruh tutgan birikmalarda kuchliroq ekanligi oldindan ma'lum.

Natriy-karboksimetilselluloza va natriy tripolifosfati tuzi asosidagi sintez birikmasining IQ spektrida 3305,99 sm<sup>-1</sup> sohada OH guruhiga tegishli bo'lgan valent tebranish chiziqlarini ko'rish mumkin; 2362,8-2115,91 sm<sup>-1</sup> sohalarda P-O-H ga tegishli chiziqlar namoyyon bo'ldi. 1635,64 sm<sup>-1</sup> sohada COO<sup>-</sup> karboksilat anioniga tegishli bo'lgan assimetrik; 1415,78 - 1327,03 sm<sup>-1</sup> sohalarda esa shu ionga tegishli bo'lgan simmetrik tebranishlardagi chiziqlar hosil bo'ldi. Tahlil davomida 1203,58 sm<sup>-1</sup> sohada P=O ga tegishli bo'lgan signal; 1107,14 sm<sup>-1</sup> sohada C-O bog'lar; 975,98- 898,83 sm<sup>-1</sup> sohalarda OH ga tegishli bo'lgan deformatsion tebranishlar; 667,37 sm<sup>-1</sup> chastotada C-H ga tegishli bo'lgan assimetrik, 599,86 sm<sup>-1</sup> da esa Na-O ga tegishli bo'lgan tebranishlarni ko'rish mumkin.

Dissertatsiya ishida poliz ekinlari ekstraktlaridan citrullus lanatus (Yashil ingibitor-1), cucumis melo (Yashil ingibitor-2), cucurbita (Yashil ingibitor-3) namunalari ekstraksiyalari IQ spektrlari o'rganilgan.

Cucurbita ekstrakti namunasi IQ spektrida 3347,57 sm<sup>-1</sup> sohada o'rtacha intensivlikka ega bo'lgan NH guruhiga tegishli bo'lgan assimetrik; 2975,81 sm<sup>-1</sup> chastotada kuchli intensivlikka ega bo'lgan CH<sub>3</sub> guruh; 1647,62 sm<sup>-1</sup> oraliqda o'rtacha kuchsiz intensivlikka ega C=C bog'larga tegishli bo'lgan tebranishlar; 1453,05 sm<sup>-1</sup> yutilish sohasida o'rtacha kuchsiz assimetrik tuzilishli NO<sub>2</sub> guruh; 1417,57 sm<sup>-1</sup> chastotada CH guruh tegishli intensivligi kuchsiz tebranishlar; 1382,32-1328,19 sm<sup>-1</sup> oraliqda simmetrik, o'rtacha intensiv CH<sub>3</sub> guruh; 1274,26 sm<sup>-1</sup> sohada -P=O bog'larga tegishli bo'lgan tebranishlar mavjudligi aniqlangan. Uglevodород molekullari gidrofob xossalarni namoyon qilib, agressiv muhit tomon yo'naltirilib, metall sirtidan korrozion aktiv zarrachalarni itarib chiqaradi hamda qo'shimcha ekrinlashtirib himoyani kuchaytiradi.



**1-rasm. Yashil ingibitorlarning IQ-spektrlari**

Fosfatlarning ta'sirini sirtida yupqa fosfat qavatlar xosil qilishi va metall ionlarini himoya qilishi bilan tushuntiriladi. Natriy-karboksimetilselluloza va azot, fosfor tutgan yashil ingibitorlar erimaydigan komplekslarni hosil qilishi bilan birmuncha samaradorli hisoblanadi. Eritmaga ushbu birikmalarning qo'shilishi metallarni korroziyadan saqlab, ortiqcha tuz hosil qilishning oldini oladi. Ingibirlash xususiyati ayrim metallarda funksional guruhlar  $-NH_2$ ,  $=NH$ ,  $CN$ ,  $N=O$ ,  $-P=O$  tutgan birikmalarda kuchliroq ekanligi taxmin qilinadi.

**Yashil ingibitorlarni optik emission spektrometrik usulida olingan element analiz natijalari.** Dissertatsiya ishida poliz ekinlari ekstraktlaridan citrullus lanatus, cucumis melo, cucurbita namunalari tarkibidagi makro va mikroelementlarni AVIO 200 (ISP-OES) optik emission spektrometrik usuli orqali natijalar olindi. Yashil ingibitorlar namunalari citrullus lanatus, cucumis melo, cucurbita ekstraktlar tarkibidagi metallar va metallmaslarning miqdori element analizi usulida aniqlandi. Analiz natijasida citrullus lanatus, cucumis melo, cucurbita namunalari nisbatan cucurbita tarkibida azot va fosforning miqdori bir muncha ko'pligi aniqlandi. Ushbu olingan natijalar IQ spektroskopiyasi usuli asosida olingan natijalar bilan mos keldi, ya'ni ekstrakt namunalari aniqlangan funksional guruhlar yana bir bor ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

**Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX) natijalarining tahlili.** Dissertatsiya ishida Jizzax viloyati Zomin va Sh.Rashidov tumanlarida yoz mavsumida yetishtirilgan tarvuz (citrullus lanatus)ning chinni, qovun (cucumis melo)ning obi novvot va qovoq (cucurbita)ning kartoshka qovoq nomli navlarining po'stloq qismlaridan ekstraksiya qilish uchun foydalanildi. Poliz ekinlari tarkibida A, C, E vitamini, B-guruhi vitaminlari, flavonoidlar, qand (saxaroza), kletchatka, karotin, tiamin, riboflavin, azotli birikmalar, pektin moddalar, folat kislotasi, magniy, kaliy, kalsiy, fosfor, azot, temir, natriy, oltingugurt va boshqa mikroelementlar kabi moddalarni o'zida saqlaydi. Tarvuz (citrullus lanatus)ning chinni, qovun (cucumis melo)ning obi novvot, qovoq (cucurbita)ning kartoshka qovoq deb nomlangan

navining po‘stloq qismi salqin joyda 1 oy mobaynida quritilib olindi va mayda kukun holatiga keltrilidi. Kukun holatidagi tarvuzni 96%li spirtga solinib 10 kunda olib qo‘yildi. 10 kundan so‘ng hosil bo‘lgan eritmaning spirtli qismini rotorli bug‘latgichda xaydab olindi. Qolgan suvli qismi muzlatilib, ya‘ni liofil quritish usulida quritildi. Liofil quritish qurilmasi moddani solishdan yarim soat oldin yoqiladi va vakkum qo‘shiladi. Kolbadagi moddalar osiladi va 5-6 soat davomida quritiladi. Shu bilan birga ularni ingibitorlik xossalarini birinchi marta o‘rganildi. Dissertatsiya ishida yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX) usuli asosida standart namunalarga nisbatan flavonoidlar miqdorini aniqlash ishlari olib borilgan. Flavonoidlarning ayrimlari turli xil to‘lqin uzunliklarida maksimal nur yutish qobiliyatiga ega bo‘lib, elyuentlar sistemasi oddiy usul asosida bir biridan ajratish ishlarini olib borish imkoniyatini yaratadi. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, citrullus lanatus, cucumis melo, cucurbita lardagi po‘stlog‘i ekstraktlari nafaqat suvli muhitda balki, og‘ir sharoitlarda ham qo‘llanilishi mumkin. Birikmalarning himoyalash xossalarini samaradorligi ingibitorlarni xemosorbsion mexanizmida metall sirtiga ta‘sir qiladi va mustahkam ximoyalovchi qavatlarni hosil qilishi mumkinligi haqida fikr yuritishimiz mumkin. Flavonoidlar tarkibidagi karbonil va gidroksil guruhlari hisobiga metall ionlari bilan kam eruvchan birikmalarni hosil qilish imkoniyatiga ega.

## 2-jadval


### Citrullus lanatus, cucumis melo, cucurbita ekstraktlari tarkibidagi flavonoidlarning miqdori

T/r	Namunalar	Flavonoidlar miqdori mg/100g						
		Rubinin	Rutin	Apigenin	Izoramnetin	Gall kislota	Giperazid	Kversetin
1	Citrullus lanatus	-	190,741	34,564	-	65,369	25,998	-
2	Cucumis melo	-	131,114	41,974	-	75,124	-	-
3	Cucurbita	-	190,702	30,864	-	176,712	37,141	-


Flavonoidlarning miqdoriga nisbatan cucurbita (Yashil ingibitor-3)da eng yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa qovoq tarkibidagi rutin miqdori 190,702 mg/% ni, gall kislotasi 176,712 mg/% ni, citrullus lanatus tarkibida rutin miqdori 190,741 mg/% ni tashkil qiladi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yashil ingibitor ekstraktlari tarkibida flavonoidlarga va vitaminlarda boy bo‘lib, ular metall yuzasiga adsorbsiyalangan holda korroziyaning oldini oladi. Ayniqsa tahlil qilingan natijalar asosida hamma yashil ingibitorlar tarkibida vitamin B 6 ning miqdori ko‘p bo‘lib, piridoksalfosfat tarkibidagi azot, fosfor hamda gidroksil guruhlarning mavjudligi korroziya jarayonida ingibirlash xossasini yanada yaxshilaydi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobini **“Ingibitorlarning samaradorligini elektrokimyoviy va gravimetrik usullar yordamida tadqiq qilish”** deb nomlanadi. **Ochiq elektrod potensial o‘zgarishi usulidan olingan natijalar.** Bunda po‘lat 3 va 45 namunalari turli muhitda ingibitorlar ta‘sirida ochiq elektrod potentsiallarni

o'zgarish natijalari keltirilgan. Natijalardan shuni bilish mumkinki, faqat OCP o'zgarishlarida har bir ingibitordan olingan egri chiziqlar ya'ni potentsiallarni barqaror holatga kelishini izohlaydi. Metall namunasi ingibitorga botirilgandan so'ng, namuna uchun oxirgi statsionar OCP,  $E_{corr}$ . va har bir namunaning dastlabki og'irligi, yakuniy massasi va massa yo'qotishi hamda hisoblangan o'rtacha korroziya tezligi, sinovdan so'ng namunadagi chuqurlikning vizual ko'rsatkichlari o'lchanishi mumkinligi aniqlangan. Korroziya tezligining o'zgarishi metall sirtida qatlamlar hosil bo'lishini izohlaydi. Ingibitorlar kiritilganda oxirgi barqaror OCP qiymatlari ularning tegishli himoya potentsiallaridan ( $E_{corr}$ .) ni o'zgarishidan darak beradi.



**2-rasm. Po'lat 3 namunasining turli ingibitorlarni kiritilganda ochiq elektrod potentsial o'zgarishi**




**3-rasm. Po'lat 45 namunasining turli ingibitorlarni kiritilganda ochiq elektrod potentsial o'zgarishi**

Ko'rsatilgan natijalar, uchta ingibitor uchun OCP potentsialining sezilarli darajada oshishini ko'rsatdi. Taxminan 40 va 50 soniyadan so'ng, potentsiallar barqaror maksimal qiymatlarga yetdi, bu esa o'zgarmas bo'lib qoladigan quasi-statsionar holatni anglatadi. Ochiq elektrod potentsialining barqarorlanishi, ingibitorlarning uglerod tutgan po'lat yuzasiga samarali adsorbtsiyalanishini tasdiqlaydi.

**Qutblanish egrilari usulida olingan natijalar tahlili.** Qutblanish egrilari usuli ingibitorlarning samaradorligini aniqlashning ekspress usullaridan biri xisoblanishi yoritilgan. Metallarning turli muhitlarda elektrokimyoviy korroziyasini tasvirlab berishda qutblanish egrilarining analizidan foydalanish mumkin. Po'lat elektrodning yuzasi ingibitor bilan ingibirlanishi natijasida elektrodlarda ma'lum farqqa ega potentsiallarning o'zgarishi va shu bilan birga korroziya tokning miqdori o'zgarishi kuzatiladi. Dissertatsiya ishida yashil ingibitorlar tarvuz (*Citrus lanatus*) YI-1, qovun (*Cucumis melo*) YI-2, qovoq (*Cucurbita*) YI-3 namunalari qutblanish egrilari usuli yordamida ingibitorlarning samaradorligi o'rganildi.

Korroziya toki o'zgarishlari orqali to'la qoplanish darajalari  $\theta$ , adsorbtsion muvozanat konstantasi aniqlangan. Bunda to'la qoplanish darajasi 0,82-0,95 ga qadar

ortganligi aniqlandi.  $\theta$  qiymati 1ga qadar ortib borsa shu ingibitorlar samarali hisoblanadi.



**4-rasm. (Fon-3) da po‘lat 3 namunasining turli ingibitorlar kiritilganda qutblanish egrilari usuli yordamida olingan natijalar**


Yashil ingibitorlarning samaradorligi 25°C haroratda 5% Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>+3% H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> (Fon-1) pH=5,3 da qutblanish egrilari usulida aniqlangan natijalar 3-jadvalda berilgan.

**3-jadval**


**Ingibitorlarning samaradorligini 25°C haroratda (Fon-1) eritmada qutblanish egrilari usulida aniqlangan natijalari**

Ingibitor	C, (mg/l)	$i_c$ (mA/sm <sup>2</sup> )	$\gamma$	$\theta$
(Fon-1)	30	0,68	—	—
Cucurbita		0,034	20,00	0,95
Cucumis melo		0,040	17,00	0,94
Citrullus lanatus		0,054	12,59	0,92
(Na-KMS+DEAF)		0,061	11,15	0,91
(Na-KMS+AF)		0,074	9,18	0,89
NaKMS·Na <sub>5</sub> P <sub>3</sub> O <sub>10</sub>		0,102	6,66	0,85
Na-KMS·H <sub>3</sub> PO <sub>4</sub>		0,122	5,57	0,82

**Qutblanish qarshilik usulida olingan natijalarning tahlili.** Elektrokimyoviy qarshilik spektroskopiyasi (EQS) yoki qutblanish qarshilik usuli tadqiqot ishida po‘latning 3 va 45 namunalarida olib borildi. Ushbu ishda yashil ingibitor kiritilgan sistemada citrullus lanatus, cucumis melo, cucurbita ingibitorlarda korroziyalanish va ingibirlanish jarayonlarining elektrokimyoviy kinetik parametrlarini o‘zgarishi o‘rganildi. Sistemada po‘lat 3 namunasida qutblanish qarshiligi fon eritmada 410 ga teng, po‘lat 45 namunasida fon eritmada 800 ga tengligini ko‘rishimiz mumkin. Sistemaga ingibitor kiritilganda qutblanish qarshiliklari keskin ortganligini ko‘rishimiz mumkin.



**5-rasm. Yashil ingibitorlarni po‘lat 3 elektrodi va (Fon-3)da qutblanish qarshiliklarini o‘zgarishi**



**6-rasm. Yashil ingibitorlarni po‘lat 45 elektrodi va (Fon-3)da qutblanish qarshiliklarini o‘zgarishi**

Ushbu egrilardan ko‘rinib turindiki eng yaxshi ingibitor cucurbita namunalaridan ajratib olingan ingibitor hisoblanadi.

**Gravimetrik usulda olingan natijalar.** Dissertatsiya ishida ingibitorlarning samaradorligini gravimetrik usulda aniqlashda tajribalarni turli harorat oralig‘i va turli konsentratsiyalarda olib borish ingibirlash mexanizmi haqida ko‘plab ma‘lumotlarni beradi. Tadqiqot obyektlarining fon eritmalaridagi optimal konsentratsiyasini aniqlash uchun ingibitorlarning turli konsentratsiyalarida tadqiqotlar olib borildi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra ingibitorlarning 30 mg/l konsentratsiyasi optimal konsentratsiyasi deb topildi. 10, 20, 30, 40 mg/l konsentratsiyalarda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra konsentratsiya ortishi bilan himoyalash darajasi va sirtni qoplanish darajasi avvalo sezilarli darajada ortishi keyinchalik deyarli o‘zgarmay qolganligi kuzatildi (Jadval-4). (Fon-3) eritmada olib borilgan himoyalash darajasini konsentratsiyaga bog‘liqligini o‘rganish natijalariga ko‘ra obyektlar (Fon-1) va (Fon-2) ishchi eritmalariga qaraganda yuqoriroq himoyalash darajasini ko‘rsatdi. Cucurbita ingibitori yuqori 95,54% samaradorlikni namoyon qilishini ko‘rishimiz mumkin.

**4-jadval**

**Ingibitorlarning 298 K haroratda (Fon-3) eritmada himoyalash darajasini konsentratsiyaga bog‘liqligi**

C, mg/l	Ingibitorlar samaradorligi, %				
	Na-KMS ·H <sub>3</sub> PO <sub>4</sub>	Na-KMS ·Na <sub>5</sub> P <sub>3</sub> O <sub>10</sub>	Citrullus lanatus	Cucumis melo	Cucurbita
10	69,95	73,08	77,78	81,55	83,71
20	83,45	86,01	88,12	89,25	93,23
30	87,42	88,12	93,01	94,82	95,54
40	87,69	88,29	93,17	94,95	95,67

(Fon-3) eritmada ingibitorlarning himoyalash darajasini konsentratsiyaga bog‘liqligi 4-jadvalda keltirilgan. Gravimetrik usuldan foydalanib 15 kundan 30 kun davomida ingibitorlarning ta’sir qilish davomiyligi aniqlandi.

### 5-jadval

**T=298 K da ingibitorlarning turli ishchi eritmalarda 15 va 30 kun davomida gravimetrik usulda aniqlangan tormozlash koeffisienti ( $\gamma$ ), himoyalash darajasi (Z) qiymatlari**

Ingibitorlar	$K$ , gr/(sm <sup>2</sup> ·soat)	$\gamma$	Z, %	$K$ , gr/(sm <sup>2</sup> ·soat)	$\gamma$	Z, (%)
	<b>15 kunlik natija</b>			<b>30 kunlik natija</b>		
Fon-3 (pH=6,7)	2,97	-	-	2,73	-	-
Na-KMS·H <sub>3</sub> PO <sub>4</sub>	0,472	6,29	84,09	0,343	7,96	87,42
Na-KMS·Na <sub>5</sub> P <sub>3</sub> O <sub>10</sub>	0,427	6,96	85,62	0,352	7,75	88,12
Citrullus lanatus	0,227	13,08	92,35	0,191	14,29	93,01
Cucumis melo	0,190	15,63	93,58	0,141	19,36	94,82
Cucurbita	0,167	17,78	94,36	0,122	22,38	95,54

(Fon-3) eritmada olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra 30 mg/l konsentratsiyada tadqiqot obyektlari 15 kun davomida 84,09% dan 94,36% gacha, 30 kun davomida 87,42% dan 95,54% gacha himoyalash darajasini ko‘rsatdi.

### 6-jadval

**Turli harorat va konsentrasiyalarda Cucurbitaning Fon-3 eritmadagi korroziyaga qarshi samaradorligi**

Ingibitorlar	T, K	$C_{ing}$ , mg/l	$K$ , mg/sm <sup>2</sup> ·soat	$\gamma$	Z, %	$\theta_{Grav}$
(Cucurbita)	298	-	2,730	-	-	-
		10	0,515	5,305	81,15	0,8115
		20	0,326	8,3682	88,05	0,8805
		30	0,122	22,38	95,54	0,9554
		40	0,115	23,74	95,78	0,9578
	308	-	3,010	-	-	-
		10	0,687	4,384	77,19	0,7719
		20	0,456	6,6007	84,85	0,8485
		30	0,227	13,245	92,45	0,9245
		40	0,213	14,124	92,92	0,9292
	318	-	3,310	-	-	-
		10	0,872	3,7959	73,66	0,7366
		20	0,757	3,7959	77,14	0,7714
		30	0,460	3,7959	81,78	0,8178
		40	0,411	3,7959	87,57	0,8757
	328	-	3,590	-	-	-
		10	1,238	2,9002	65,52	0,6552
		20	1,015	3,5373	71,73	0,7173
		30	0,785	4,5746	78,14	0,7814
		40	0,725	4,9529	79,81	0,7981

Ishda yashil ingibitorlarning kinetik va termodinamik ko'rsatkichlarini o'rganish maqsadida turli konsentratsiyalarda va turli haroratlarda korroziya tezligi va sirtini qoplash darajalari ham topilgan. Cucurbita qo'llanilganda korroziya tezligi ingibitorsiz muhitga qaraganda kamaygan. Haroratning ortishi bilan ingibirlangan sistemaning korroziya tezligi va himoyalash darajasi kamaygan. 298K haroratda 10-40 mg/l konsentratsiyalarda himoyalash darajasi mos ravishda 81.15-95.78 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 308K haroratda Z % qiymati 77.19-92.92%ni, 318K haroratda 73.66-87.57%ni, 328K haroratda esa 65.52-79.81%ni tashkil qilgan. Fizikaviy adsorbsiyada harorat ortishi bilan ingibitor molekullari va po'lat sirti orasidagi elektrostatik ta'sirlar kamayadi, bu Z% va  $\theta_{\text{Grav}}$  qiymatlarini kamayishiga olib keladi. Umumiy hisobda  $\theta_{\text{Grav}}$  ning kamayishi desorbsiyaning adsorbsiyadan yuqori ekanini ko'rsatadi. Haroratning ortishi bilan himoyalash darajasining keskin kamayib ketmasdan barqaror bo'lishi (95.78-79.81%) kimyoviy adsorbsiya natijasi hisoblanadi.

**Kinetik tadqiqot natijalari tahlili.** Ishda yashil ingibitorlar orasida yuqori samaradorlik ko'rsatgan Cucurbitaning kinetik parametrlari o'rganildi. Arrenius tenglamasi bo'yicha po'lat sirtining ingibitorsiz va ingibitorli muhitlardagi faollanish energiyalari turli harorat va konsentratsiyalardagi korroziya tezliklari orqali olingan lgK ning 1000/T ga bog'liqligi orqali hisoblandi (6-jadval). Faollanish entalpiyasi va entropiyasi qiymatlarini hisoblash uchun lg K/T ning 1000/T ga bog'liqlik egrilari dan foydalanildi (7-jadval).

**7-jadval**


**Fon-3 eritmada korroziya jarayoni faollanishining termodinamik funksiyalariga Cucurbita ingibitorining ta'siri**

<b>Parametrlar</b>	<b>-</b>	<b>10</b>	<b>20</b>	<b>30</b>	<b>40</b>
<b>E<sub>f</sub> (kJ/g)</b>	7,69	24,05	32,82	49,95	50,39
<b>ΔH<sub>f</sub> (kJ/g)</b>	5,05	21,41	30,18	47,31	47,75
<b>ΔS<sub>f</sub>J/(g·K)</b>	0,20	-0,18	-0,16	-0,11	-0,11


**“Ingibitorlarning adsorbsiya izotermalari va adsorbsiyalanish termodinamikasi”.** O'zining yuqori samaradorligini namoyon etgan citrullus lanatus, cucumis melo, cucurbita yashil ingibitorlarning po'lat sirtiga adsorbsiyalanish mexanizmi haqida to'liq ma'lumot olish uchun turli harorat va konsentratsiyalarda Frumkin, Tyomkin va Lengmyur izotermalari olindi.

Frumkin izotermasini olish uchun lg  $[\theta/(1-\theta)]$  ni lg C<sub>ing</sub> ga bog'liqlik grafigi chizildi (7-rasm). Har bir harorat bo'yicha korrelyasiya koeffisientining qiymatlari (YI-3 uchun 0,9394; 0,94,61; 0,8581; 0,9764) olindi.

Tyomkin izotermasi uchun  $\theta$  qiymatini lg C<sub>ing</sub> ga bog'liqlik grafigi chizildi (8-rasm). Har bir harorat bo'yicha korelyasiya koeffisientining qiymatlari (YI-3 uchun 0,9681; 0,9669; 0,9074; 0,982) olindi. Frumkin va Tyomkin izotermalari bo'yicha korelyasiya koeffisientlarining qiymatlari birga yaqin emasligi ingibitorning metall sirtiga adsorbsiyasi ushbu nazariyalar bo'yicha bormasligini ko'rsatdi.




**7-rasm. Cucurbita ingibitorini (Fon-3) eritmada metall sirtiga adsorbsiyasi uchun Frumkin izotermalari**




**8-rasm. Cucurbita ingibitorini (Fon-3) eritmada metall sirtiga adsorbsiyasi uchun Tyomkin izotermalari**

$C/\theta$  ning  $C_{ing}$  ga bog‘liqligidan Lengmyur izotermasi olindi (9-rasm). Lengmyur izotermasi chiziqli ko‘rinishidan olingan tajribaviy natijalarning korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati birga yaqin bo‘lishi jarayonni monomolekulyar adsorbsiya nazariyasiga bo‘ysunishini ko‘rsatdi. Izotermadagi  $C_{ing}$  va  $C_{ing}/\theta$  bog‘liqligi orqali aniqlangan  $K_{ads}$  ning qiymatidan foydalanib, adsorbsiya jarayonining standart Gibbs energiyasi  $\Delta G_{ads}$  qiymati 293–323K harorat oralig‘ida aniqlandi (10-rasm).



**9-rasm. Cucurbita ingibitorini (Fon-3) eritmada metall sirtiga adsorbsiyasi uchun Lengmyur izotermalari**



**10-rasm. Cucurbita ingibitorida  $\Delta G_{ads}^{\circ}$  ning temperaturaga bog‘liqligi**

Tajriba natijasida temperatura ortishi bilan Gibbs energiyasining qiymati kamayishi aniqlandi, bu esa jarayonni o‘z-o‘zidan borganligini ko‘rsatadi. Po‘lat

sirtining suv bilan tasirlashish tezligiga nisbatan ingibitor molekulari bilan ta'sirlashib kompleks hosil qilish tezligi kattaligi sababli tartibsizlik ortadi. Shuning uchun adsorbsiya entropiyasi musbat qiymatga ega (8-jadval). Entalpiya qiymatining manfiy bo'lishi adsorbsiya ketganda ekzotermik jarayon bo'lishini ko'rsatadi.

### 8-jadval

#### Fon-1 eritmada Cucurbita ingibitori adsorbsiya jarayonining termodinamik funksiyalari

	T, K	$K_{ads}$	$R^2$	$\Delta G_{ads}$ , kJ/g	$\Delta H_{ads}$ , kJ/g	$\Delta S_{ads}$ , J/(g*K)
<b>Cucurbita</b>	298	36,4964	0,9986	-26,01	-11,172	49,7
	308	31,0559		-26,47		
	318	27,0270		-26,97		
	328	24,155		-27,51		

Dissertatsiya ishida sintez qilingan korroziya ingibitorlarining samaradorligi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan boshqa turdagi xosilalalar va xorijiy davlatlardan import qilinuvchi ingibitorlar bilan solishtirilgan. Jumladan respublikamizda olib borilgan ishlardan Gossipol asosidagi qoplamalar (Xoliqov A.J.), DMGMDA (Eshmamatova N.B.), KU[n]+GPL (Berdimurodov E.T.), PAMFK-GIPAN (Rashidova K.X.), NFMFK + Uniflok (Azimov L.A.), DMATKF (Rajabov Y.N.),  $\beta$ -SDoFDA (Eliboyev I.A.)lar va xorijiy tadqiqot ishlaridagi NALKO, KW-2353 lar bilan solishtirish ishlari olib borildi.

Sintez qilib olingan birikmalar hamda poliz ekinlari ekstraktlari yashil korroziya ingibitorlari "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MChJ ning texnik nazorat bo'limi va elektrokimyoviy laboratoriyada aylanma suv tizimlari, sovitish va isitish tizimlarida oqova suvlari tarkibida qatlam (quyqa) hosil qiluvchi komponentlarga qarshi ingibitor sifatida sinovdan o'tkazilgan. Olingan ingibitorlarning himoyalash darajasi va solishtirish natijalari keltirib o'tilgan. Yashil ingibitorlarni himoyalash darajasi eng yuqori natijalarni ko'rsatdi.

Sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, Na-KMS asosidagi birikmalar hamda ekstraktsiyalangan yashil ingibitorlardan foydalanilganda o'zaro sinergizm ta'sir natijasida po'lat 3 va 45 namunalarning maksimal himoyalash darajasi (95,54% gacha) erishildi, shu bilan birga optimal konsentratsiyasi 30 mg/l bo'lganda korroziyadan samarali himoyalashini va metall yuzasiga yaxshi adsorbsiyalanishini ko'rsatdi. Tadqiqotlar sanoat-tajriba sinovi o'tkazish tartibi va standartlariga muvofiq o'tkazildi, bunda gravimetrik analiz usulidan foydalanildi. Muborak gazni qayta ishlash zavodida poliz ekinlaridan ajratib olingan ekstrakt namunalari birinchi marta ingibitor sifatida joriy etildi va fon eritmada korroziyon faollikni pasaytirishi va metallni korroziya natijasida yemirilishdan 93,26-94,05% himoyalagani kuzatildi va korroziyani kamaytiruvchi ingibitor sifatida foydalanish mumkinligi ko'rsatildi.

## XULOSALAR

1. Samaradorligi yuqori bo'lgan yashil (citrullus lanatus, cucumis melo, cucurbita) korroziya ingibitorlari aniqlandi. Olib borilgan elektrokimyoviy, gravimetrik usullar asosida korroziya toki, tormozlash koeffitsiyenti, korroziya tezligi, himoyalash darajasi kabi parametrlar hamda yashil ingibitorlardan qo'llanilganda optimal 298 K harorat va 30 mg/l konsentratsiya ko'rsatildi.

2. Yuqori samarali suyuqlik xromatagrafiyasi usuli citrullus lanatus, cucumis melo, cucurbita ekstraktlari tarkibidagi flavonoidlar va vitaminlarning funksional guruhlari metall yuzasiga adsorbsiyalangan holda korroziyaning oldini olishi mumkinligi aniqlandi.

3. Ishlab chiqilgan ingibitorlarning himoyalash darajasi, adsorbsion muvozanat konstantasi va to'la qoplanish darajasi hisoblanib, temir ionlari bilan kam eriydigan va himoya qatlami hosil bo'lishi hisobiga eritmada ketishi mumkin bo'lgan tahminiy reaksiya mexanizmlari taklif qilindi.

4. Citrullus lanatus, cucumis melo, cucurbita yashil ingibitorlarda turli funksional guruhlar mavjudligi hisobiga ichki molekulyar sinergizm effekti kuzatilgan hamda bunday ingibitorlarning metall sirtida zich qavatlar hosil qilishi va ingibirlash samarasining 95,54 % ga ortishiga olib kelishi ko'rsatildi.

5. Yashil ingibitorlarning samarasi agressiv muhitda harorat ko'tarilishi bilan ortishi, keyin ma'lum haroratga yetganda uning samaradorligi o'zgarmasligi aniqlandi, bu esa ingibitorlar xemosorbsion mexanizmida ta'sir qilib, hosil bo'lgan qavatlar mustahkamligini oshishi isbotlandi.

6. Natriy-karboksimetilselluloza va azot, fosforli birikmalar asosidagi yashil korroziya ingibitorlari po'lat sirtida turli muhitda boshlang'ich moddaning tarkibi va strukturasi bilan butkul farq qiladigan himoya qavatlar hosil qilishi hamda ular aralash mexanizimli ingibitorlar sifatida ta'sir qilib, anod va katod jarayonlarini sekinlashtirishi aniqlandi.

7. Muborak gazni qayta ishlash zavodida poliz ekinlari (citrullus lanatus, cucumis melo, cucurbita)dan ajratib olingan ekstrakt namunalari birinchi marta ingibitor sifatida joriy etildi va fon eritmada korrozion faollikni pasaytirishi va metallni korroziya natijasida yemirilishdan 93,26–94,05% himoyalagani kuzatildi va korroziyani kamaytiruvchi ingibitor sifatida foydalanish uchun tavsiya qilindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.K.01.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА НАУК ПРИ  
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

**КУРБАНОВА ЛАТОФАТ МАМАДИЁРОВА**

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЗЕЛЁНЫХ ИНГИБИТОРОВ НА ОСНОВЕ НАТРИЙ-  
КАРБОКСИМЕТИЛЦЕЛЛЮЛОЗЫ И АЗОТ, ФОСФОР  
СОДЕРЖАЮЩИХ СОЕДИНЕНИЙ**

**02.00.04-Физическая химия(химические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент-2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.4.PhD/K690.**

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский) размещен на веб-странице по адресу [www.ik-kimyo.nuu.uz](http://www.ik-kimyo.nuu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNET» по адресу [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net).

**Научный руководитель:** **Эшмаматова Нодира Бахромовна**  
доктор химических наук, доцент

**Официальные оппоненты:** **Холиков Абдували Жонизокович**  
доктор химических наук, профессор  
**Рашидова Камила Хамидовна**  
PhD., доцент

**Ведущая организация:** **Институт общей и неорганической химии**

Защита диссертации состоится «15» февраля 2025 г. в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc 03/30/12/2019.K.01.03 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, Ташкент, ул. Университетская 4, Тел.: (99871) 227-12-24; факс: (+99871) 246-53-21; 246-02-24).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана за (зарегистрировано за № 7) (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская 4. Тел.: (99871) 246-67-71).

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_ 2025 года.

(протокол рассылки № \_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года).

**З.А. Сманова**  
Председатель научного совета по  
присуждению учёной степени доктора наук,  
д.х.н., профессор

**Н.Х. Кутлимуротова**  
Ученый секретарь научного совета по  
присуждению учёной степени доктора наук,  
д.х.н., профессор

**Х.И. Акбаров**  
Председатель научного семинара при научном  
совете по присуждению учёной степени доктора наук,  
д.х.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (PhD) диссертации)

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Сегодня в мире коррозия металлов усиливается под воздействием социальных и экологических факторов и для ее снижения широко используются ингибиторы, антикоррозионные и металлические покрытия. Большое практическое значение имеет использование экономически эффективных, экологически безопасных ингибиторов с различными функциональными группами. Здесь важное место занимает разработка новых антикоррозионных ингибиторов из растительных экстрактов с учетом требований зеленой химии.

В мире соединения, содержащие amino-, карбоксильные группы, производные фосфорной кислоты и различные супрамолекулярные комплексы широко используются в синтезе ингибиторов, повышающих эффективность защиты металлов от коррозии. Проводятся обширные научные исследования по определению их адсорбции на поверхности металлов, катодных и анодных процессов, различных физико-химических свойств. Большое научное значение имеет синтез экологически безопасных зеленых ингибиторов на основе растительных экстрактов и определение их адсорбционного действия на поверхность металлов.

В республике уделяется особое внимание развитию передовых инновационных технологий и стабилизации отраслей промышленности. Изучение процессов коррозии и разработка методов защиты металлов относятся к актуальным научно-техническим проблемам. В настоящее время изучается большое количество видов органических и неорганических соединений, влияющих на скорость коррозии металлов в кислой среде. Параллельно ведутся исследования, направленные на выявление природных или “зеленых” ингибиторов коррозии. Установлено, что для снижения скорости коррозии можно использовать натуральные продукты, растения и их экстракты. В стратегии развития Нового Узбекистана определены важные задачи «быстрого развития Национальной экономики и обеспечения высоких темпов роста»<sup>1</sup>. Поэтому одной из актуальных задач является создание импортозамещающих, конкурентоспособных, отвечающих требованиям мировых стандартов качества, экспортных, с высокой эффективностью в низких концентрациях, безопасных, биологически чистых зеленых антикоррозионных ингибиторов.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана», № PQ-3264 от 29 августа 2017 года «О мерах по совершенствованию экспортно-импортной деятельности химической промышленности» и решения от 12 августа 2020 г. PQ-4805 «О мерах по повышению качества непрерывного образования и эффективности науки в областях химии и биологии», а также в других соответствующих нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

